

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№11

2025
noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 432 sahifa.
2025-yil, noyabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHINING UMUMIY GLOBAL TENDENSIYALARI.....	12
Ismailov Azizbek Ruzimaxmatovich	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUV VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI	22
Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR	30
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	35
Sultonov Shodiyor Abduxalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....	41
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	48
Xodjimov Xamidullo Mamirjonovich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR.....	53
Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	59
Axatova Shahnoza	
SANOATNING "DRAYVER" SOHALARINI RIVOJLANTIRISH	63
Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna	
РОЛЬ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСТАНА.....	69
Хошимова Камилла Навфал қизи	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	79
Тожиева Шахноза Бобомуратовна, Расулова Дилфуза Валиевна	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	86
Файзиёв Умуркул Шухратович	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATIDA ISTEMOLCHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI	97
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
СТАНДАРТЫ КАЧЕСТВА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	103
Ўролова Севара Бехзод қизи	
BANKLARDA KAPITAL YETARLILIGI VA LIKVIDLIKNI AUDITORLIK BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	109
Narziyev Hayotjon Azamatovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BudgetLASHTIRISH ORQALI FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI.....	115
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
AUDITORLIK XULOSALARIDA AUDITORLARNING PROFESSIONAL MULOHAZALARNING ASOSLILIGINI ANIQLASH AHAMIYATI	120
Parpiyev Jaxongir Ilxomjonovich	
YASHIL IQTISODIYOTDA YASHIL MOLIYALASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIYOT UYG'UNLIGI.....	126
Xalikov S. X.	



TURISTIK KORXONALARDA BREND CAPITALINI BAHOLASH	131
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
AYOLLAR ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA KASANACHILIKNING AHAMIYATI	141
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	148
Алимова Дилафруз	
O'ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALAR VA TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	153
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SOLIQ BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	161
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО СЕКТОРА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭНЕРГЕТИКИ	165
Аллаева Г.Ж.	
THE IMPORTANCE OF STRESS TESTING AND ITS IMPLEMENTATION IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	169
Mamatova Sevara	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARI SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION KO'RSATKICHLARI	175
Nabiyev G'ulom Abdisalomovich	
IJTIMOİY SOHA INVESTISIYA LOYIHALARINI DAVLAT–XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISHNING XORIY TAJRIBALARI	185
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
YASHIL BANK MAHSULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	189
Mahmudov Ulug'bek Davronovich	
KICHIK BIZNESDA XUSUSIY VA UMUMIY AXBOROT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI	193
Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	197
Mamatkulova Nadira Maxkamovna	
JAHON AMALIYOTIDA TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI	203
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
РАЗВИТИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ МАЛОГО БИЗНЕСА КАК ФАКТОР ПЕРЕХОДА К “ЗЕЛЁНОЙ” ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	210
Бозорова Озода Рахимовна	
ТЕМИРБЕТОН КО'РРИКЛАРДАГИ BURDALANGIN BETONDAN OLINGAN CHAQIQ TOSHNI KOMPLEKS TADQIQOT QILISH	222
Salixanov Saidxon Salixanovich, Kenjayev Temurbek Olimjonovich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI ANIQLASH USULLARI VA SOF FOYDA KO'RSATKICHIDA AKS ETISH YO'LLARI	226
Mavlyanov Muzaffar Yusupovich	
MAMLAKATIMIZ BANKLARIDA FOIZ RISKILARI MUAMMOLARI VA ILMIY-TAHLILI	230
Isakov.J.Ya	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI EKSPORTGA YO'NALTIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI VA BAHOLASH MEZONLARI	238
Faxriddinov Bahriddin	



TO'QIMACHILIK SANOATIDA SUN'IY VA KIMYOVIY TOLALARNING IQTISODIY AFZALLIKLARI	243
Raximov Furqat Jalolovich	
BUXORO VILOYATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'I RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH STRATEGIYASI.....	249
Rahmonov Xurshid Xayriddinovich, Atoeva Mehriqo Ilhom qizi	
KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA UNI YURITISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	254
M.I.Murodova	
SOLIQ SIYOSATI ORQALI AHOLI DAROMADLARINI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI.....	258
Uzoqov Suhrobjon Do'smat o'g'li	
INNOVATSION VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA LOGISTIK XIZMATLAR KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI TAHLILI.....	264
Xalimov Javlonbek Shaxriyovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQLARNI UNDIRISHNING METODOLOGIK MUAMMOLARI	271
Muxammadov Nodir Karimovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA EKSPORTBOP MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH	277
Boymirzayev Zokirjon Mashrabboyevich	
IQTISODIYOT VA TA'LIM BOSHQARUVI: O'ZBEKISTONDA TA'LIM BRENDINGI UCHUN IQTISODIY JIHATLAR.....	282
Dilfuza Shokirova	
OLIY TA'LIM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	291
Raximjonova Shohsanam Baxodirovna	
O'ZBEKISTON BANKLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI INSON KAPITALI RIVOJI BILAN UYG'UNLASHTIRISH: INSTITUTSIONAL YONDASHUV.....	295
Xushvaqto'v Nodirbek Nomoz o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MOLIYAVIY STRESS-TEST TIZIMINI YARATISH METODOLOGIYASI	299
Zaynutdinov Ismoil Samariddin o'g'li	
HOZIRGI SHAROITDA BANK FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI	303
Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi	
ENSURING SECURITY IN THE DIGITAL WORLD: HOW THE INSURANCE INDUSTRY CAN COUNTER CYBERATTACKS	308
D.D. Omonova	
JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISH JARAYONIDA BYUDJET-SOLIQ SIYOSATINI ISLOH QILISH MASALALARI	314
Hojiakbar Zaynabidinov	
SILINDRSIMON KAMERADA QATLAMLI CHIGITLAR AYLANMA HARAKATINING TAHLILI.....	319
No'monov Mirjalol Abdumalik o'g'li	
IPAKCHILIK KLASSTERLARI ASOSIDA TARMOQNI O'RTA MUDDATLI RIVOJLAN TIRISH STRATEGIYASI.....	325
Xudoykulov Mamarasul Radjabovich	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	332
Shermatov Sirojiddan Xaydarovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM IQTISODIYOTINING RAQAMLI MARKETING ORQALI RIVOJLANISH YO'LLARI.....	335
Egamberdiyev Muzaffar	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ РЕШЕНИЙ В РЕАЛИЗАЦИИ ПРОЕКТА «БЕЗОПАСНЫЙ ГОРОД»	339
Иминов Акбаржон Одилжонович	



IQTISODIY TIZIM VA INSON QADRIYATI: KAPITALIZM VA GUMANIZM O'RTASIDA	345
Raxmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH VA INVESTITSİYALAR JALB ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	350
Yusupov Muxiddin Soatovich	
KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLİYAVIY HISOBOT MA'LUMOTLARINI TAHLIL QILISH MASALALARI	358
Avazov Ilhom Ravshanovich	
YANGI TUZILISHLI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARINI OLISH USULLARI	363
S. Saparova, M. Musaeva, M. Mirsadikov, M. Mukimov	
KVANT MUHITIDA AXBOROTNI HIMOYALASHGA XIZMAT QILUVCHI MULTIPLEKSER TUZILMASI	370
Safoev Nuriddin Najmiddin o'g'li	
ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR: KO'P QATLAMLI IQTISODIY MEXANIZMLAR, INNOVATSION INFRATUZILMA VA INSTITUSIONAL UYG'UNLIKNING KONSEPTUAL TAHLILI	377
Kuziev Ravshan Ramazonovich	
SANOAT HAMKORLIGINING ILG'OR TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA INTEGRATSIYA QILISH YO'LLARI	385
Boyurayev Olimjon Urayimovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	392
Akbarov G'ayratjon Ne'madjonovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANIDA YILQICHILIK VA TUYACHILIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARINI ARIMA MODEL ASOSIDA PROGNOZLASH	396
Sabit Gabbarov Nietali'evich	
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSALARIDA AUTSORSING FAOLIYATINI MOLİYALASHTIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR	402
Xamidov Anis Choriyevich	
NEXUS BETWEEN RENEWABLE ENERGY USE AND GDP GROWTH IN UZBEKISTAN	407
Xalimjonov Nurbek Ulug'bek o'g'li, Toxirov Shodiyor Zafar o'g'li, Jumamuratov Sultanbek Ilyasovich	
MOLIYAVIY SALOHİYATNI OSHIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	415
Akishova Shaxnoza Davlet qizi	
O'ZBEKISTON O'RMON XO'JALIGIDA INNOVASION MOLİYALASHTIRISH: NORMATIV TAYANCH, BOZOR INSTRUMENTLARI VA EKOTIZIM XIZMATLARI	420
Mamatqulova Muxlisaxon Mamirjanovna	
SERVIS IQTISODIYOTIDA ISH BILAN BANDLIK SHAKLLARI TRANSFORMATSIYASINI TADBIQ QILISHGA METODOLOGIK YONDASHUV	425
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	



SERVIS IQTISODIYOTIDA ISH BILAN BANDLIK SHAKLLARI TRANSFORMATSIYASINI TADBIQ QILISHGA METODOLOGIK YONDASHUV



Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil izlanuvchisi, PhD, dotsent.

Email: akmal_a85@mail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada servis iqtisodiyotida ish bilan bandlik shakllarining transformatsiyasi, uning iqtisodiy, institutsional va raqamli rivojlanish sharoitida namoyon bo'lish xususiyatlari tahlil qilinadi. Mehnat bozoridagi moslashuvchan bandlik, platforma mehnati, gig-bandlik va masofaviy mehnat modellarining kengayishi, shuningdek ularning xizmat ko'rsatish sektori samaradorligiga ta'siri ilmiy-metodologik jihatdan asoslanadi. Tadqiqot tizimli, komparativ va iqtisodiy-statistik yondashuvlar asosida amalga oshirilib, servis iqtisodiyotida bandlik transformatsiyasini joriy etishning konseptual modeli ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: servis iqtisodiyoti, bandlik shakllari, platforma mehnati, gig-ekonomika, fleksibil mehnat, masofaviy mehnat, xizmatlar bozori, raqamli transformatsiya, mehnat bozori modeli.

Abstract. This article analyzes the transformation of employment forms in the service economy, its manifestations in the context of economic, institutional and digital development. The expansion of flexible employment, platform work, gig employment and remote work models in the labor market, as well as their impact on the efficiency of the service sector, is scientifically and methodologically substantiated. The research is carried out on the basis of systematic, comparative and economic-statistical approaches, and a conceptual model for implementing employment transformation in the service economy is developed.

Keywords: service economy, forms of employment, platform work, gig economy, flexible work, remote work, services market, digital transformation, labor market model.

Аннотация. В статье анализируется трансформация форм занятости в экономике услуг, её проявления в контексте экономического, институционального и цифрового развития. Научно и методологически обосновано расширение на рынке труда моделей гибкой занятости, платформенной занятости, гиг-занятости и удалённой работы, а также их влияние на эффективность сферы услуг. Исследование проведено на основе системного, сравнительного и экономико-статистического подходов, разработана концептуальная модель реализации трансформации занятости в экономике услуг.

Ключевые слова: экономика услуг, формы занятости, платформенная занятость, гиг-экономика, гибкая работа, удалённая работа, рынок услуг, цифровая трансформация, модель рынка труда.

KIRISH

So'nggi o'n yilliklarda global iqtisodiyotda ro'y berayotgan chuqur strukturaviy o'zgarishlar xizmatlar sektorining jadal kengayishi, raqamli texnologiyalarning keskin rivojlanishi va mehnat munosabatlarning moslashuvchanlashuvi bilan tavsiflanadi. Xizmatlar sektori bugungi kunda nafaqat iqtisodiyotning eng yirik tarmog'i, balki mehnat bozorining asosiy bandlik makoni sifatida shakllanmoqda. OECD ma'lumotlariga ko'ra, rivojlangan davlatlarda xizmatlar sektorida bandlik ulushi 70–85 foizgacha yetgan bo'lib, bu sektor iqtisodiy o'sishning asosiy drayveriga aylangan. Bunday o'sish nafaqat xizmatlar turlarining ko'payishi, balki mehnat shakllarining transformatsiyasi bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Raqamli iqtisodiyotning shakllanishi natijasida ish bilan bandlikning an'anaviy shakllari bilan bir qatorda platforma mehnati, gig-ekonomika, masofaviy bandlik, freelancing, mikrokontrakt asosidagi mehnat va loyihaviy bandlik kabi zamonaviy shakllar jadal rivojlanmoqda. Ushbu bandlik shakllari mehnat bozori qatnashchilariga vaqt, makon va ish hajmi bo'yicha kengroq erkinlik berib, iqtisodiy faol aholining o'z mehnat salohiyatini samaraliroq namoyon qilishiga imkon yaratmoqda. Shu bilan birga, bandlik shakllarining bunday diversifikatsiyasi mehnat munosabatlarining huquqiy asoslarini yangilash, bandlikni rasmiylashtirish va ijtimoiy himoya mexanizmlarini modernizatsiya qilish masalalarini dolzarb qilib qo'ymoqda.

Servis iqtisodiyotining o'sishi sharoitida bandlik strukturasining o'zgarishi ishlab chiqarish jarayonlaridan ko'ra xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan, bilim va ko'nikmalarga yuqori talab qo'yuvchi, raqamli kompetensiyalar asosida shakllanuvchi bandlik modelini shakllantirmoqda. Bellning postindustrial jamiyat nazariyasi va Castellsning tarmoq jamiyati konsepsiyalarida ta'kidlanganidek, xizmatlar sektoridagi mehnatning asosiy qatlamini intellektual mehnat, kreativ xizmatlar, tahliliy jarayonlar va raqamli platformalarga integratsiyalashgan xizmatlar tashkil etadi. Bu esa mehnatni tashkil etishning yangi paradigmasini yuzaga keltiradi.

O'zbekiston iqtisodiyotida ham xizmatlar sektori istiqbolli yo'nalishlardan biri sifatida tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Yalpi ichki mahsulotda xizmatlarning ulushi 50 foizga yaqinlashgani, xizmat turlarining kengayishi, eksportga yo'naltirilgan IT-xizmatlar va biznes xizmatlarining o'sishi mehnat bozorida yangi talabni shakllantirmoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, "Xizmatlar sohasini rivojlantirish konsepsiyasi" hamda bandlik sohasidagi davlat siyosati mehnat shakllarining moslashuvchan va raqamli modellarga o'tishini qo'llab-quvvatlovchi omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Biroq xizmatlar sektorida bandlik shakllarining transformatsiyasini ilmiy-metodologik asosda o'rganish, xalqaro tajribani tahlil qilish, platforma iqtisodiyoti va gig-bandlikning milliy mehnat bozoriga ta'sirini baholash, ularni joriy etishda yuzaga keladigan institutsional cheklavlarni aniqlash zarurati paydo bo'lmoqda. Xususan, mehnat xavfsizligi, ijtimoiy himoya, raqobatbardosh ko'nikmalarni shakllantirish va mehnatni tartibga solish mexanizmlarini modernizatsiya qilish kabi masalalar yangi yondashuvlarni talab etadi.

Shu nuqtayi nazardan, ushbu tadqiqot servis iqtisodiyotida bandlik shakllarining transformatsiyasini tatbiq qilishning metodologik asoslarini ishlab chiqish, modernizatsiya jarayonining ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, zamonaviy bandlik modellarning iqtisodiy samaradorligini baholash hamda O'zbekiston sharoitiga mos milliy modelni taklif qilishni maqsad qilgan. Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi bandlik shakllarining transformatsiyasini kompleks tizimli yondashuv asosida o'rganish, xorijiy amaliyot bilan milliy mehnat bozori imkoniyatlari o'rtasidagi integratsion nuqtalarni aniqlash hamda xizmatlar sektori uchun konseptual model ishlab chiqishda namoyon bo'ladi.

MAVZU OID ADABIYOTLAR SHARHI

Servis iqtisodiyotida ish bilan bandlik shakllarining transformatsiyasiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar ko'lamini so'nggi yillarda sezilarli darajada kengaydi. Mazkur yo'nalishning o'rganilishi, asosan, uchta yirik ilmiy maktab – postindustrial iqtisodiyot nazariyasi, raqamli iqtisodiyot va platforma mehnati yondashuvlari, shuningdek bandlikning moslashuvchan modellari konsepsiyalari doirasida shakllangan.

Servis iqtisodiyotining asosiy nazariy poydevori Daniel Bell, Alain Touraine va J. Fourastié kabi xorijiy iqtisodchilarning tadqiqotlarida yoritilgan. Bellning "postindustrial jamiyat" kontsepsiyasi xizmatlar sektorining o'sishini iqtisodiy rivojlanishning markaziy yo'nalishi sifatida talqin etadi. Uning fikriga ko'ra, bandlikning xizmatlar tarmog'iga ko'chishi iqtisodiyotning bilimga asoslangan modelga o'tishi bilan bevosita bog'liq. Fourastié esa iqtisodiy taraqqiyot jarayonini uch sektor bo'yicha evolyutsion o'zgarish sifatida izohlaydi: qishloq xo'jaligidan sanoatga, sanoatdan esa zamonaviy xizmatlarga o'tish.

Ushbu nazariyalar asosida xizmatlar sektorida mehnatning intellektuallashuvi, xizmat ko'rsatish madaniyati, mijozga yo'naltirilgan faoliyatning ustuvorligi va inson kapitaliga talabning ortishi kabi tendensiyalar shakllangan. Yevropa Ittifoqi, AQSh va Yaponiya iqtisodchilari R. Florida, M. Castells hamda P. Drucker zamonaviy mehnatning "kreativ sinf", "tarmoq jamiyati" va "bilim iqtisodiyoti" kabi tushunchalarini ilgari surgan.

So'nggi 15 yil davomida bandlik shakllarining transformatsiyasi, asosan, raqamli texnologiyalar, internet platformalari va gig-iqtisodiyotning rivojlanishi bilan izohlanmoqda. J. Manyika, K. Schwab, L. De Stefano va U. Rinaldi kabi tadqiqotchilar platforma iqtisodiyotining mehnat bozoriga ta'siri, masofaviy mehnatning o'sishi, mikrokontraktlar va talabga asoslangan xizmatlar ("on-demand labor") bozorining shakllanishi masalalarini chuqur o'rgangan.

Servis iqtisodiyotida ish bilan bandlik shakllarining transformatsiyasini o'rganishda O'zbekiston ilmiy maktabi so'nggi yillarda sezilarli ilmiy-metodologik yutuqlarga erishmoqda. Milliy tadqiqotlarning o'ziga xosligi ularning xorij tajribasini bevosita ko'chirib olishga emas, balki O'zbekistonning demografik, institutsional, iqtisodiy va hududiy sharoitlariga moslashtirilgan modellarning ishlab chiqilishiga qaratilganidadir. Tahlilga ko'ra, mahalliy olimlar ish bilan bandlik bozoridagi transformatsiyalarni bir nechta ilmiy yo'nalishlar kesimida o'rganib kelishmoqda.



Professor R. Abdullayev va uning ilmiy maktabi xizmatlar iqtisodiyotining shakllanishi, rivojlanish determinantlari va boshqaruv mexanizmlarini chuqur tahlil qilgan. Uning tadqiqotlarida xizmatlar sohasida bandlikning o'sishi iqtisodiyotning modernizatsiyasi, urbanizatsiya, aholining daromadlari o'sishi va xizmatlar diversifikatsiyasi bilan bog'liq ekani qayd etiladi. Olim xizmatlar sektorining tarkibiy o'zgarishlari, ayniqsa savdo, ta'lim, sog'liqni saqlash, logistika va axborot xizmatlarining bandlikdagi ulushi ortib borayotganini empirik ma'lumotlar asosida asoslaydi.

Professor Sh. Yusupov O'zbekistonda mehnat bozori transformatsiyasini demografik omillar, mehnat resurslari sifat ko'rsatkichlari va hududiy notekisliklar bilan bog'liq holda o'rganib keladi. Uning ilmiy qarashlariga ko'ra, xizmatlar sohasida bandlikning kengayishi yoshlar bandligini ta'minlashda asosiy drayver sifatida namoyon bo'lmoqda.

Professor Q. Abdumannopov O'zbekiston mehnat bozorida yangi bandlik shakllarining shakllanishini institutsional islohotlar bilan bog'liq holda tahlil qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologiyasi servis iqtisodiyotida ish bilan bandlik shakllarining transformatsiyasini chuqur va tizimli o'rganishga, bandlikning innovatsion shakllarini shakllantirishda xorijiy tajribalar, raqamli texnologiyalar, mehnat bozori modernizatsiyasi hamda platformaviy mehnat tizimlarining rolini ilmiy asosda tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotning metodik yondashuvi kompleks, tizimli va funksional tahlil tamoyillari asosida shakllangan bo'lib, xizmatlar sektorida mehnat bozori transformatsiyasining zamonaviy jarayonlarini keng miqyosda o'rganishni nazarda tutadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Servis iqtisodiyoti XXI asrning asosiy iqtisodiy drayveri sifatida global mehnat bozorida chuqur strukturaviy o'zgarishlar yasamoqda. Raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi, masofaviy mehnatning ommalashuvi va platforma iqtisodiyotining tez o'sishi bandlik shakllarini diversifikatsiya qilmoqda. Bunday sharoitda bandlik transformatsiyasini metodologik asosda tahlil qilish iqtisodiy siyosat, mehnat bozori boshqaruvi va ijtimoiy himoya strategiyasini takomillashtirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Xizmatlar sektori uzluksiz kengayib borayotgan sharoitda an'anaviy bandlik shakllari o'z ahamiyatini yo'qotib, ularning o'rnini moslashuvchan va raqamli bandlik modellari egallamoqda (1-jadval).

1-jadval. Servis iqtisodiyotida bandlik shakllarining evolyutsiyasi

Davr	Asosiy bandlik modeli	Xususiyatlari	Transformatsiya omillari
Industrial davr	To'liq stavkali, barqaror bandlik	Zavod-fabrikalarga bog'liq	Ishlab chiqarish markazlashuvi
Postindustrial davr	Xizmatlarga tayangan bandlik	Bilim iqtisodiyoti shakllanadi	Ta'lim, innovatsiya
Raqamli davr	Masofaviy, gig, loyihaviy bandlik	Moslashuvchan, harakatchan mehnat	Raqamlashtirish, internet platformalari

1-jadval mehnat bozorida bandlik shakllarining tarixiy bosqichlar kesimidagi o'zgarishlarini tizimli ko'rinishda yoritadi. Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, industrial davrda bandlikning asosiy shakli barqaror, to'liq stavkali mehnat bo'lgan, postindustrial davrga kelib xizmatlar sektorining kengayishi natijasida esa bilimga asoslangan bandlik modeli shakllangan. Raqamli davr bandlik shakllarining tubdan transformatsiyasini, masofaviy va gig-mehnatning ustuvorligini yaqqol namoyon etadi.

Jadvaldan ma'lum bo'ladiki, har bir davrning bandlik modeli o'ziga xos iqtisodiy omillar bilan belgilanadi: industrial bosqichda ishlab chiqarishning markazlashuvi, postindustrial davrda innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi, raqamli davrda esa internet texnologiyalarining keskin rivojlanishi asosiy harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qilgan. Shu tariqa, jadval mehnat bozoridagi transformatsiya jarayonining evolyutsion xarakterga ega ekanini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Raqamli texnologiyalar mehnat bozorida uchta asosiy o'zgarishni keltirib chiqarmoqda:

- jarayonlarning avtomatlashtirilishi;
- mehnat resurslarining virtual shaklda taqsimlanishi;
- platformaviy iqtisodiyotning kengayishi (2-jadval).

2-jadval. Raqamlashtirish ta'sirining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	An'anaviy model	Raqamli model	O'zgarish mohiyati
Ish joyi	Fizik ofis	Virtual ish muhiti	Masofaviy bandlik kengayadi
Mehnat vaqti	Qat'iy	Moslashuvchan	Natijaga yo'naltirilgan mexanizm
Ish topish	Korxonalar orqali	Onlayn platformalar orqali	Vositachilar qisqaradi
Malaka talabi	Bir yo'nalishli	Ko'p funksiyali, IT bilimlar	Ko'nikmalar yangilanadi

2-jadval an'anaviy mehnat modeli bilan raqamli mehnat modeli o'rtasidagi sifat o'zgarishlarini chuqur taqqoslash imkonini beradi. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, raqamlashtirish jarayonlari mehnatning barcha tarkibiy elementlarini – ish joyi, mehnat vaqti, ish topish mexanizmi va malaka talablarini tubdan qayta shakllantirgan.

Masalan, an'anaviy modelda ish joyi ko'proq jismoniy hudud bilan chegaralangan bo'lgan bo'lsa, raqamli modelda virtual mehnat muhiti ustunlik qiladi. Mehnat vaqti qat'iy reglamentdan moslashuvchan grafikga o'tgan. Ish topish jarayoni esa endilikda korxona yoki tashkilotlar orqali emas, balki internet platformalari orqali amalga oshadi.

Servis iqtisodiyotida quyidagi besh asosiy bandlik shakllari yetakchi o'rinni egallamoqda (3-jadval).

3-jadval. Bandlik shakllarining taqqoslanishi

№	Bandlik shakli	Afzalliklari	Cheklovlari	Qo'llanish sohasi
1	An'anaviy to'liq stavkali	Barqaror daromad, ijtimoiy kafolatlar	Moslashuvchanlik past	Ta'lim, sog'liqni saqlash
2	Moslashuvchan bandlik	Ish vaqti erkinligi	Daromad o'zgaruvchan	Servis xizmatlari
3	Masofaviy bandlik	Hududiy cheklov yo'q	O'zini boshqarish zarur	IT, marketing, konsalting
4	Gig/platformaviy bandlik	Tezkor ish topish	Kafolatlar cheklangan	Taksi, yetkazib berish
5	Loyihaviy bandlik	Yuksak mahoratni talab qiladi	Vaqtincha daromad	Injenerlik, dizayn, IT

Servis iqtisodiyotida shakllanayotgan besh asosiy bandlik modelining afzalliklari, kamchiliklari va qo'llanish sohalari ilmiy-sezistik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, har bir bandlik shakli o'zining funksional ustunliklari va amaliy cheklovlariga ega.

An'anaviy bandlik ijtimoiy kafolatlar va barqaror daromadni ta'minlasa-da, moslashuvchanlik darajasi past bo'ladi. Aksincha, gig-bandlik moslashuvchanligi va tezkorligi bilan ajralib turadi, biroq ijtimoiy kafolatlari yetarli bo'lmaydi. Masofaviy va loyihaviy bandlik esa zamonaviy servis iqtisodiyoti uchun eng talabgir shakllardan bo'lib, ular hududiy cheklovlarning yo'qligi hamda yuqori darajadagi kasbiy erkinlik bilan ajralib turadi.

Servis iqtisodiyotining kengayishi va bandlik shakllarining transformatsiyasi mamlakat mehnat bozorida chuqur tizimli o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. 4-jadvalda aks ettirilgan asosiy yo'nalishlar iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional darajadagi o'zgarishlarning o'zaro bog'liqligini namoyon etadi. Bu jarayonni baholashda nafaqat bandlikning miqdoriy ko'rsatkichlari, balki uning sifat xususiyatlari, moslashuvchanligi, ijtimoiy himoya darajasi va mehnat mahsuldorligiga ta'siri ham muhim ahamiyat kasb etadi (4-jadval).

4-jadval. Transformatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari

Yo'nalish	Ijobiy natija	Salbiy natija
Bandlik	Yangi ish o'rinlari	Muvaqqat ishlar ulushi ortadi
Ijtimoiy himoya	Yangi modelga o'tish imkoniyati	Barqarorlik kamayishi
Inson kapitali	IT va soft-skills rivojlanadi	Malaka tez eskiradi
Iqtisodiy o'sish	Servis eksporti ortadi	Segmentlar bo'yicha notenglik yuzaga keladi

Servis sektorining kengayishi yangi ish o'rinlarining yaratilishiga xizmat qilayotgan bo'lsa-da, bu o'rinlarning muhim qismi moslashuvchan, qisqa muddatli yoki platforma asosidagi bandlik shakllari ko'rinishida shakllanmoqda. Natijada, an'anaviy to'liq stavkali ishlar ulushi nisbatan qisqarib, bandlikning diversifikatsiyalashuvi kuchaymoqda. Bu holat bir tomondan aholining ish topish imkoniyatlarini kengayitrsa, ikkinchi tomondan esa ish barqarorligi va mehnat kafolatlari nuqtayi nazaridan xavf tug'diradi. Ayniqsa, yoshlar va ayollar orasida gig-turdagi bandlikning kengayishi mehnat bozorining segmentatsiyalashuviga olib kelishi mumkin.



Transformatsiyaning eng dolzarb oqibatlaridan biri — ijtimoiy himoya tizimining an'anaviy modeli bilan mos kelmaslikdir. Platforma asosidagi ishlar, mustaqil pudratchilik va masofaviy bandlikda ko'pincha pensiya jamg'armasiga to'lovlar, majburiy sug'urta hamda mehnatga layoqatsizlik bo'yicha kafolatlar to'liq qamrab olinmaydi. Natijada, mehnat bozori "barqaror-kafolatlangan" va "noaniq-kafolatsiz" segmentlarga ajralmoqda. Bu esa uzoq muddatda ijtimoiy himoya tizimi barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va iqtisodiy tengsizlikning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Servis sektoridagi texnologik rivojlanish — raqamlashtirish, avtomatlashtirish, sun'iy intellekt — inson kapitaliga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirmoqda. Yangi ish o'rinlarining aksariyati raqamli ko'nikmalar, kommunikativ kompetensiyalar, soft-skills va mijozlar bilan ishlash malakalarini talab qiladi. Shu bilan birga, mavjud malakalarning tez eskirishi "reskilling" va "upskilling"ga bo'lgan ehtiyojni keskin oshirmoqda. Agar qayta tayyorlash tizimlari yetarlicha rivojlanmasa, malakasi eskirgan ishchi kuchi mehnat bozoridan chetlatilishi va strukturaviy ishsizlik kuchayishi mumkin.

Servis iqtisodiyotining o'sishi, ayniqsa IT-servislar, biznes xizmatlari, transport-logistika va elektron tijorat segmentlari orqali yalpi ichki mahsulot o'sishiga sezilarli hissa qo'shmoqda. Biroq bu o'sish daromadlar tengsizligining kuchayishi bilan birga kechishi ehtimoldan xoli emas. Yuqori malakali IT-mutaxassislar, data-analitiklar va raqamli xizmat ko'rsatuvchilarning daromadlari tez o'sayotgan bir paytda, past malakali servis xodimlari daromadlarining o'sish sur'atlari past bo'lib qolmoqda. Bu jarayon mehnat bozorida "katta tafovut modeli"ni shakllantiradi va iqtisodiy siyosatda inklyuziv yondashuvni talab qiladi.

5-jadvalda keltirilgan metodologik yondashuvlar bandlik transformatsiyasini ilmiy asosda o'rganish va amaliyotda boshqarish uchun zarur bo'lgan kompleks, tizimli va institutsional yondashuvlarni mujassamlashtiradi. Ular o'zaro bog'liq bo'lib, transformatsiya jarayonining to'liq modelini yaratishga xizmat qiladi (5-jadval).

5-jadval. Metodologik yondashuvlar tizimi

Tamoyil	Mazmuni	Kutiladigan natija
Tizimli yondashuv	Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik omillarni birgalikda tahlil qilish	Kompleks boshqaruv
Innovatsion yondashuv	Raqamli infratuzilmani rivojlantirish	Raqamli bandlikning kengayishi
Institutsional moslashuv	Qonunchilikni yangi shakllarga moslashtirish	Platforma mehnati rasmiylashtiriladi
Monitoring va prognoz	Mehnat bozorida o'zgarishlarni bashoratlash	Strategik rivojlanish
Inson kapitali rivoji	Qayta tayyorlash va malaka oshirish	Zamonaviy ko'nikmalarga ega kadrlar

Tizimiy yondashuv mehnat bozori jarayonlarini alohida sektorlar, faoliyat turlari yoki alohida indikatorlar kesimida emas, balki tizim sifatida ko'rib chiqishni nazarda tutadi. Bu yondashuv bandlikning iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, demografik va institutsional komponentlarini o'zaro bog'liqlikda tahlil qilish imkonini beradi. Servis iqtisodiyoti uchun bu ayniqsa muhim, chunki xizmat ko'rsatish tarmoqlarida texnologiyalar, inson omili va bozor mexanizmlari bir vaqtda ta'sir ko'rsatadi.

Servis iqtisodiyotidagi transformatsiya texnologik innovatsiyalar bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Shuning uchun metodologik asosga innovatsion yondashuvni kiritish muhim: raqamli platformalar, elektron mehnat bozorlari, avtomatlashtirilgan xizmatlar, AI va analitika kabi texnologiyalarni hisobga olgan holda baholash mexanizmini shakllantirish talab qilinadi. Bu yondashuv yangi bandlik shakllarining afzalliklari va cheklovlarini aniqlash imkonini beradi.

Bandlik shakllarining o'zgarishi mehnat qonunchiligi, soliq tizimi va ijtimoiy sug'urta institutlarining moslashuvini talab etadi. Mustaqil pudratchilar, platforma ishchilari va masofaviy xodimlar uchun mehnat huquqlarini aniq belgilash transformatsiyaning asosiy shartlaridan biridir. Hozirgi normativ baza ko'p hollarda an'anaviy mehnat shakllariga yo'naltirilgan bo'lib, yangi shakllarga moslashuvni ta'minlash uchun institutsional modernizatsiya talab etiladi.

Bandlik transformatsiyasini baholashda faqat statik ko'rsatkichlar emas, balki dinamik, doimiy yangilanadigan monitoring tizimi talab qilinadi. Bu tizim quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

- platforma bandligi statistikasi;
- ishchi kuchi migratsiyasi va sektorlararo siljishlar;
- malakalar mosligi;
- daromadlar o'zgarishi;
- xizmatlar eksportining o'sishi.

Shu bilan birga, prognozlashda vaqt qatorlari tahlili, regressiya modellari va ssenariylar ishlab chiqish (optimistik, bazaviy, pessimist) kabi metodlar qo'llanilishi kerak.

Tadqiqotlar ko'rsatmoqdaki, bandlik transformatsiyasi muvaffaqiyatining asosiy omili inson kapitalining sifati va moslashuvchanligidir. Shu bois malaka oshirish, qayta tayyorlash va kompetensiyalar bo'yicha baholash metodlarining joriy etilishi metodologik tizimning muhim tarkibiy qismidir. Bu yondashuv mehnat bozori ehtiyojlari bilan ta'lim tizimi o'rtasidagi nomutanosiblikni kamaytiradi.

5-jadvalda keltirilgan metodologik yondashuvlar asosida shunday xulosa chiqarish mumkinki, transformatsiya jarayonini boshqarish va tadqiq etish uchun kompleks, ko'p bosqichli, o'zaro bog'langan ilmiy-uslubiy model talab qilinadi. Bu modelning ustunligi shundaki, u mehnat bozoridagi o'zgarishlarni nafaqat qayd etadi, balki ularning kelajakdagi yo'nalishini ham prognoz qila oladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Servis iqtisodiyotining jadal rivojlanishi mehnat bozorida yangi bandlik shakllarining shakllanishi, an'anaviy mehnat munosabatlarining moslashuvi va inson kapitaliga qo'yilayotgan talablarning tubdan o'zgarishi bilan xarakterlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bandlik shakllarining transformatsiyasi mamlakat iqtisodiyoti uchun keng ko'lamli imkoniyatlar yaratish bilan birga, institutsional va ijtimoiy jihatdan murakkab chaqiriqlarni ham yuzaga keltirmoqda. Raqamlashtirish, platforma iqtisodiyoti, masofaviy ish va gig-bandlik kabi yangi mexanizmlarning rivojlanishi xizmatlar sektorining o'sishini tezlashtiradi, mehnat bozorida moslashuvchanlikni oshiradi va aholi bandligini diversifikatsiyalashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, yangi bandlik shakllarining ommalashuvi ijtimoiy himoya tizimi, soliq mexanizmlari va mehnat munosabatlari institutlarining qayta ko'rib chiqilishini talab qilmoqda. Platforma ishchilari, mustaqil pudratchilar va masofaviy xodimlar qamrab olinishi bo'yicha mavjud normativ baza yetarli darajada moslashuvchan emasligi ularning mehnat huquqlari va ijtimoiy kafolatlarini zaiflashtirishi mumkin. Bu esa mehnat bozori segmentatsiyasini kuchaytirib, barqaror daromad hamda ijtimoiy adolat masalalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot shuni isbotlaydiki, transformatsiyani samarali boshqarish uchun tizimli, innovatsion va institutsional yondashuvlarni o'z ichiga olgan kompleks metodologiya zarur. Xususan, xizmatlar sektorining o'ziga xos jihatlarini hisobga olgan monitoring va prognozlash tizimini yaratish, malaka va kompetensiyalarga bo'lgan talabning o'zgarishini doimiy ravishda baholash, qayta tayyorlash dasturlarini takomillashtirish hamda moslashuvchan ijtimoiy himoya mexanizmlarini shakllantirish strategik ahamiyatga ega.

Shuningdek, mehnat bozorida yuz berayotgan dinamik o'zgarishlar inson kapitalining rolini yanada kuchaytirib, xizmatlar sektoridagi bandlikning sifat ko'rsatkichlarini aniqlashda asosiy omilga aylanmoqda. Malaka oshirish, qayta tayyorlash, raqamli savodxonlikni kengaytirish va kasbiy ko'nikmalarni moslashtirish transformatsiyaning muvaffaqiyatini belgilovchi strategik yo'nalishlardir.

Umuman olganda, servis iqtisodiyotida bandlik shakllari transformatsiyasining chuqurlashuvi milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, xizmatlar eksportini rivojlantirish, aholi daromadlarini ko'paytirish va iqtisodiy inklyuzivlikni ta'minlash uchun muhim omildir. Ushbu jarayonni samarali boshqarish davlat siyosati, xususiyl sektor faoliyati va ta'lim tizimi o'rtasidagi uzviy hamkorlikka tayanadi. Transformatsiyaning ilmiy asoslangan metodologiyasini ishlab chiqish esa barqaror rivojlanishning muhim kafolati sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.07.2018-yildagi "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3832-son qarori. <https://lex.uz/docs/-3806053>
2. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi. Mehnat bozori statistik ko'rsatkichlari bo'yicha yillik hisobotlar. – Toshkent, 2023.
3. Becker, G. S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. – Chicago: University of Chicago Press, 1993.
4. Castells, M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell Publishers, 2010.
5. Bell, D. The Coming of Post-Industrial Society. – New York: Basic Books, 1999.
6. ILO (International Labour Organization). World Employment and Social Outlook: Digital Labour Platforms and the Future of Work. – Geneva, 2021.
7. OECD. Employment Outlook: The Future of Work. – Paris, OECD Publishing, 2020.
8. Autor, D. "Skills, Education, and the Rise of Earnings Inequality." Science, 2014.
9. Kuek, S. et al. The Global Opportunity in Online Outsourcing. – World Bank, 2015.
10. Manyika, J. et al. Technology, Jobs, and the Future of Work. – McKinsey Global Institute, 2017.
11. Ismoilova, D. "Raqamli iqtisodiyot sharoitida bandlikning yangi shakllari." TDIU Ilmiy axboroti, 2023.
12. Xudoyberdiyev, X. Servis iqtisodiyoti nazariyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2020.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100